

**MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**RAHMONOV HUSANJON ABJALIL O‘G‘LI**

**OMON MATJON SHE‘RIY MATNLARINING ASSOTSIATIV  
STRUKTURASI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qo‘qon – 2023**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Rahmonov Husanjon Abjalil o‘g‘li**

Omon Matjon she‘riy matnlarining assotsiativ strukturasi..... 3

**Rahmonov Husanjon Abjalil o‘gli**

Ассоциативная структура поэтических текстов Омона Матжона..... 27

**Rahmonov Husanjon Abjalil ogli**

Associative structure of poetic texts by Omon Matjon..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**RAHMONOV HUSANJON ABJALIL O‘G‘LI**

**OMON MATJON SHE‘RIY MATNLARINING ASSOTSIATIV  
STRUKTURASI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qo‘qon – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil.3296 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Lutfullayeva Durdona Esonovna,**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Mahmudov Nizomiddin Mamadaliyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Ganiyeva Dildora Azizovna.**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023- yil "29" XII soat 9<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23. Tel: (99873) 542-38-38; faks: (99873) 542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (23 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23. Tel: (99890) 508-64-42; e-mail: qdpi\_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "20" XII da tarqatildi.  
(2023 yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ da tarqatildi).  
(2023 yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ da tarqatildi).  
dagi raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.Hakimov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

**Sh.Akramov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filol. f.n. dotsent

**M.Hakimova**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab badiiy matn tadqiqiga yondashuvlar o'zgardi. Bu davrda jahon tilshunosligiga antropotsentrik tilshunoslik tamoyillari kirib kelgach, badiiy matn lingvokulturologik, pragmalingvistik, lingvokognitiv, sotsiolingvistik aspektlarda o'rganila boshlandi. Natijada badiiy matnda ijodkor shaxs omili, uning olamni idrok etishi, assotsiativ tafakkuri, olam haqidagi tasavvurlari, ruhiy kechinmalari, milliy-madaniy qarashlari, voqelikka munosabatining badiiy nutqiga "ko'chishi", matn yaratishida lisoniy qobiliyatining namoyon bo'lishi kabi masalalar tadqiqi dolzarblik kasb etdi. Bu yo'nalishda, ayniqsa, yozuvchi va shoirlarning assotsiativ fikrlash tarzini o'rganish, tasvir obyekti bilan bog'liq holda yuzaga kelgan assotsiatsiyalarining badiiy matnni yaratishdagi rolga baho berish, ijodkor idiositilini shakllantirishdagi o'rnini belgilash muhim vazifalardan biri sanaladi. Ushbu masalalar dunyo tilshunosligida mustaqil yo'nalish sifatida shakllanib ulgurgan assotsiativ tilshunoslikning dolzarb muammolari sifatida baholanadi.

Dunyo tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi choragi assotsiativ tilshunoslik yo'nalishining shakllanishida yakuniy bosqich sifatida e'tirof etildi. Bu davrga kelib assotsiativ tilshunoslik yangi ilmiy yo'nalish sifatida psixolingvistikadan ajralib chiqdi. Dunyo tilshunoslari tomonidan assotsiativ tilshunoslik masalalariga qiziqishning ortishi va bu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlarning amalga oshirilganligi, juda ko'p tillarda assotsiativ lug'atlarning yaratilganligi, assotsiativ grammatikaning tuzilganligi ushbu yo'nalishning mustaqil rivojlanayotgan soha sifatida e'tirof etilishiga olib keldi. Bugungi kunga kelib assotsiativ tilshunoslikning o'rganish obyekti, predmeti aniq belgilangan, tadqiq metodlari ishlab chiqilgan, nazariy masalalari, dolzarb muammolari belgilangan. Assotsiativ tilshunoslikda matn yaratuvchi ijodkor shaxsning assotsiativ tafakkuri, tasavvurlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan assotsiatsiyalarning badiiy matnga ko'chishi, bunday birliklarning badiiy matndagi roli, ijodkor idiositilini shakllantirishdagi o'rni kabilarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoni muayyan ijodkor badiiy asari misolida tadqiq etish *assotsiativ tafakkur – til – matn* munosabati masalasiga doir ilmiy-nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishi muqarrar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab yurtimizda ilm-fanni rivojlantirishga, o'zbek tilining jamiyat hayotidagi mavqeini ko'tarishga jiddiy e'tibor qaratildi. Bu masalada qator farmon, qarorlar qabul qilindi va "davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish" vazifasi belgilab qo'yildi.<sup>1</sup> "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"<sup>2</sup> etib qo'yilgach, barcha fan sohalari qatorida o'zbek tilshunosligi ham rivojlanishning yangi bosqichiga o'tdi. O'zbek tilshunoslari antropotsentrik

<sup>1</sup> "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони // <https://lex.uz/docs/4561730>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь. 258- сон.

tilshunoslikning sotsiologiyaviy, etnologiyaviy, pragmatologiyaviy, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixologiyaviy kabi yoʻnalishlarida chuqur izlanishlar olib borib, tilimizning nutqda inson omili bilan bogʻliq holda yuzaga chiqadigan xususiyatlarini oʻrganishga kirishishdi. Bugungi kunda oʻzbek tilshunosligida til birliklarining assotsiativ xususiyatlarini aniqlash borasida ham muayyan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo bu yoʻnalishda amalga oshirilishi lozim boʻlgan muammolar hali koʻp. Jumladan, tilshunosligimizda matn turlarini assotsiativ aspektda oʻrganish, uni yaratuvchi shaxsning assotsiativ tafakkur faoliyatiga baho berish, til meʼyoriga aylangan assotsiativlarning muallif assotsiativlari bilan muvofiq kelish-kelmasligini aniqlash, buning sabablarini belgilash, assotsiativ birliklarning matn yaratishdagi rolini ochib berish masalasi dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur holat tadqiqot uchun tanlangan mavzuning bugungi kunda dolzarbliigi, bu muammo boʻyicha hanuz oʻz yechimini kutayotgan koʻplab masalalar mavjudligini tasdiqlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947-son farmoni, shuningdek, 2019-yil 4-oktabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining oʻttiz yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida”gi PQ-4479-son qarori, 2019 –yil 21- oktabrda qabul qilingan “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5850-son qarori hamda 2020-yil 20- oktabrda eʼlon qilingan PF-6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda koʻrsatilgan vazifalarni amalga oshirishda tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga mos holda amalga oshirilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida oʻtgan asrning soʻnggi choragidan boshlab badiiy matnni antropotsentrik aspektda oʻrganishga jiddiy eʼtibor qaratilib, bu yoʻnalishda koʻplab tadqiqotlar amalga oshirildi.<sup>3</sup>

---

<sup>3</sup> Чижова Е.А. Репрезентация концептуальной картины мира в художественном тексте (на материале альтернативной литературы): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1995; Голикова Т. А. Слово как интегративный компонент репрезентации концептуальной картины мира (на материале творчества В. Набокова): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Барнаул, 1996; Покровская Я.А. Отражение в языке агрессивных состояний человека на материалах англо- и русскоязычных художественных текстов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 1998; Тильман Ю.Д. Культурные концепты в языковой картине мира (поэзия Ф.И. Тютчева): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1999; Никитченко Т.Г. Субъективный фактор в художественном тексте: лингвистический и психологический аспекты (на материале перевода): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2000; Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001; Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – 153 б.; Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 320 б.; Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент: ЎЗР

Keyingi yillarda badiiy matnni assotsiativ aspektida o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda badiiy matnning assotsiativ strukturasi tahlil qilindi, assotsiativ birliklarning matn yaratilishidagi roli ochib berildi, yozuvchi idiostilini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilindi.<sup>4</sup> O'zbek tilshunosligida ham assotsiativ aspektida muayyan ishlar amalga oshirildi<sup>5</sup>, ammo bugungi kunda o'zbek shoiri Omon Matjon she'rlarining assotsiativ tahlili amalga oshirilgan emas.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot rejasiga kiritilgan "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Omon Matjon she'riy asarlarining assotsiativ strukturasi tekshirish va shu asosda uning she'rlarida qo'llangan assotsiativ birliklarning hosil bo'lish omillarini aniqlash, shoirning matn yaratishda assotsiativ birliklardan foydalanish mahoratini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tilshunoslikda badiiy matnni assotsiativ aspektida o'rganishning ahamiyatini yoritish;

olamning badiiy manzarasini yaratishda assotsiativ birliklarning roliga baho berish;

assotsiativ birliklarning muallif lisoniy shaxsini yuzaga chiqarishdagi ahamiyatini ochib berish;

Omon Matjon she'rlarining assotsiativ xususiyatlarini yoritish; uning she'rlarida qo'llangan assotsiativ birliklarning hosil bo'lish omillarini aniqlash; shoir she'rlarida rang assotsiatsiyasining voqelanishi masalasini yoritish;

Omon Matjon she'rlari assotsiativ maydonining tuzilishini tahlil qilish, yadro va chegara qism birliklarining assotsiativ xususiyatlarini ochib berish.

---

ФА ТАИ, 2015. – 240 б.; Жамолиддинова Д. Бадий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021.

<sup>4</sup> Болотнова Н.С. Лексическая структура художественного текста в ассоциативном аспекте. – Томск: Томск. гос. пед. ин-т. 1994. – 212 с.; Новикова А.М. Ассоциативные поля в языке и в структуре художественного текста: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1998; Ефремов В.А. Ассоциативно-вербальная организация цикла лирических новелл Н.А. Бунина "Тёмные аллеи": Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – СПб., 1999. – 19 с.; Карпенко С. М. Ассоциативные связи слова в узусе и поэтическом тексте: На материале творчества Н. С. Гумилева: Дисс ... канд. филол. наук. – Томск, 2000. – 255 с.; Псурцев Д.В. Смыслоформирующий аспект образно-ассоциативных компонентов художественного текста: Автореф. дисс. .... канд. филол. наук. – М., 2001; Бабенко И.И. Коммуникативный потенциал слова и его отражение в лирике М. И. Цветаевой: Дисс ... канд. филол. наук. – Томск, 2001. – 234 с.; Тырышкина Е.А. Ассоциативное поле как элемент поэтической картины мира В. Набокова: Автореф. дисс. .... канд. филол. наук. – М., 2002; Васильева А.А. Лексический аспект ассоциативного развертывания поэтических текстов О.Э. Мандельштама: Дисс. .... канд. филол. наук. – Томск, 2004. – 229 с.; Брайнина Т.Д. Ассоциативные связи слова как основа создания образа в произведениях Саши Соколова: Автореф. дисс. .... канд. филол. наук. – М., 2006. – 26 с.

<sup>5</sup> Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.; Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўй. фалс. фан. докт. дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 49 б.; Таджибаев Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 55 б.; Ортиқова Ҳ. Бадий матннинг ассоциатив тадқиқи (Э.Воҳидов ва А.Орипов шеърлари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. фан. докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – 136 б.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o‘zbek shoiri Omon Matjonning 1987-1997-yillar oralig‘ida yaratilgan “Imon yog‘dusi”, “Ardaxiva”, “Odamning soyasi”, “Gaplashadigan vaqtlar” she‘riy asarlari matni tanlandi.

**Tadqiqotning predmetini** Omon Matjon she‘riy asarlari matnining assotsiativ xususiyatlarini o‘rganish tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash usullari, diskursiv tahlil, assotsiativ, statistik tadqiq metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

olamning badiiy manzarasini yaratishda assotsiativ birliklarning matnning “tayanch birliklar”i vazifasini o‘tashi asoslangan;

assotsiativ birliklarning ijodkor shaxsiga xos xususiyatlar, xususan, uning lisoniy qobiliyati, olam haqidagi bilim va tasavvurlari, ruhiy kechinmalari, voqelikka bo‘lgan munosabati kabilarni aks ettirishi ochib berilgan;

Omon Matjonning she‘rlarida qo‘llangan assotsiativ birliklarning xususiyatlari yoritilgan, ularning lingvistik va ekstralingvistik omillarga ko‘ra hosil bo‘lishi dalillangan;

shoir she‘rlarida til birliklari orasida to‘g‘ridan to‘g‘ri, bog‘li va aralash turdagi assotsiativ aloqa turlari kuzatilishi aniqlangan;

Omon Matjon she‘rlarida rang assotsiatsiyasining voqelanishi yoritilgan, uning she‘rlarida oq va qora ranglari bo‘yicha yuzaga kelgan assotsiativ birliklarning milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘lanishi asoslangan;

shoirning ayrim she‘rlari assotsiativ maydoni strukturasi belgilanib, yadro va chegara qism birliklari aniqlangan va ularning assotsiativ xususiyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalari oliy o‘quv yurtlari magistratura bosqichi Lingvistika yo‘nalishida o‘rganiladigan “Lingvistika nazariyasi va amaliy tilshunoslik”, “Psixolingvistika” fanlari bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanmalari, uslubiy ko‘rsatmalarni yaratishda amaliy ahamiyatga egaligi asoslangan;

Omon Matjonning poetik matnni yaratishda assotsiativ birliklarning muhim o‘rin tutishi, ularning “tayanch qurilish materiali” vazifasini bajarishi dalillangan;

badiiy matnni inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganishda assotsiativ tahlil metodining amaliy ahamiyati ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada ko‘tarilgan muammoning to‘g‘ri qo‘yilganligi, to‘plangan daliliy materiallarning assotsiativ tahlili asosida ilmiy asosga ega nazariy xulosalar chiqarilganligi, Omon Matjon she‘rlarining assotsiativ xususiyatlari aniq yoritib berilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati unda erishilgan natijalar, ishlab chiqilgan nazariy qarashlarning assotsiativ tilshunoslik sohasini badiiy matnning assotsiativ xususiyatlariga doir yangi xulosalar, bilimlar bilan boyitilishi belgilanadi.

Tadqiqot badiiy matnning assotsiativ strukturasi o‘rganishda ilmiy-nazariy manba vazifasini o‘taydi. Undan oliy o‘quv yurtlari magistratura bosqichida o‘zbek tili va adabiyoti, lingvistika yo‘nalishlarida “Poetik matnning assotsiativ

strukturasi”, “Badiiy matnning assotsiativ tahlili” mavzularida tanlov fanlaridan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Omon Matjon she‘rlarining assotsiativ strukturasi tadqiqi bo‘yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

Tadqiqotda olam badiiy manzarasini yaratishda assotsiativ birliklarning roli masalasi bo‘yicha chiqarilgan xulosalardan T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali tomonidan FZ-2016-0908165532-raqamli “Qoraqalpoq tilining alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” fundamental loyihada foydalanilgan (2022-yil 4-noyabrdagi 314/1-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

Omon Matjon she‘rlarida qo‘llangan assotsiativ birliklarning ijodkor lisoniy shaxsini namoyon qilishi masalasiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2020-2022- yillarda bajarilgan FA-F1-GOOZ raqamli “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” fundamental loyihada foydalanilgan (2022-yil 17-fevraldagi 17.01/201-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 4 ta ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida, jumladan, 2 ta respublika hamda 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ma’ruza shaklida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya natijalari jami 5 ta ilmiy maqolada o‘z ifodasini topgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob hamda xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, tadqiq obyekt, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Badiiy matnda assotsiativlik va uning o‘rganilishi”** deb nomlangan. Ushbu bobda badiiy matnni assotsiativ aspektda tadqiq etishning nazariy asoslari, olamning badiiy manzarasi va unda assotsiativ birliklarning o‘rni, assotsiativ birliklarning muallif lisoniy shaxsini namoyon qilishi kabi masalalar yoritilgan.

Ushbu bobning birinchi fasli **“Badiiy matnni assotsiativ aspektda tadqiq etishning nazariy asoslari”** deb nomlangan. Dunyo tilshunosligida badiiy matnni inson omili bilan bog‘liq holda tadqiq etish masalasi dastlab psixolingvistik tadqiqotlarda o‘rtaga tashlangan bo‘lsa, keyinchalik bu muammo pragmalingvistik, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiyada katta qiziqish bilan o‘rganila boshlandi.

Ushbu ilmiy yo‘nalishlarning har birida badiiy matn ularning yo‘nalishi mohiyatidan kelib chiqqan holda tekshirildi. Ammo e‘tirof etish joizki, uzoq yillar davomida badiiy matnda muallif shaxsiga xos xususiyatlarning namoyon bo‘lishi masalasi deyarli tadqiq etilmadi, ijodkorning matn yaratishda tasvir obyekti haqidagi bilimlari, u haqidagi tasavvurlari, assotsiativ tafakkuri, xotirasining imkoniyatlari kabi masalalar tahliliga e‘tibor qaratilmadi. D.Xudoyberganova to‘g‘ri qayd etganidek, “Biror yozuvchi yoki ijodkorning nutqiy uslubini uning so‘z qo‘llash yoki jumla tuzish mahorati nuqtayi nazari bilan tadqiq qilish usuli bugungi kun talabiga javob bermaydi. Shu boisdan matn yaratilishi masalasini shaxs uslubi nuqtayi nazaridan o‘rganish matnning lingvistik jihatlariga teranroq nazar bilan qarashga olib keladi.”<sup>6</sup>

So‘nggi yillarda badiiy matn assotsiativ tilshunoslikning ham tadqiq obyektiga aylandi. Assotsiativ tilshunoslikda badiiy matnning semantik-sintaktik shakllanishida muhim o‘rin tutuvchi, qismlarining mantiqan uzviyligini ta‘minlovchi assotsiativ birliklarning hosil bo‘lishi, badiiy matndagi vazifasi, insonning tasvir obyekti haqidagi tasavvurlari, bilimlari bilan bog‘lanishi, yozuvchi idiositilini shakllantirishdagi o‘rni kabi masalalar tahliliga jiddiy e‘tibor qaratildi.

Badiiy matnni assotsiativ aspektda tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlarda ko‘pincha matnda qo‘llangan assotsiativ birliklarni o‘rganishga e‘tibor qaratildi. Assotsiativ birliklar muallifning individual-obrazli assotsiatsiyalari hamda muayyan tilning lug‘at tizimida assotsiativ me‘yorga aylangan birliklarga ajratilib tahlil qilindi. Xususan, rus tilshunosligida bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda assotsiativ birliklar asar muallifi tomonidan hosil qilingan individual assotsiatsiyalar sifatida maxsus o‘rganildi.<sup>7</sup> Ayrim tadqiqotlarda bu kabi individual assotsiatsiyalar muallifning idiositili nuqtayi nazaridan tekshirildi.<sup>8</sup>

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnning assotsiativ xususiyatlari ayrim ishlarda qisman yoritildi. Xususan, D.Xudoyberganova tadqiqotida badiiy matnning yaratilishida assotsiativ tafakkurning o‘rni masalasiga munosabat bildirgan. Olima badiiy matnda assotsiativ birliklarning emotsionallik, ta‘sirchanlikni ta‘minlashdagi o‘rniga baho bergan. Uning qayd etishicha, “Matnda psixologik holatlarni ifodalashda assotsiativ so‘zlar ham muhim o‘rin egallaydi. Bunday so‘zlar matnda o‘ziga xos assotsiativ maydon hosil qilib, matn o‘quvchisining ruhiyatida ham muayyan holatni yuzaga keltiradi. Bunday holatning yuzaga kelishiga matnda qo‘llangan, psixologik jihatdan o‘zaro aloqador bo‘lgan so‘zlar haqidagi obrazlarning qayta tiklanishi sabab bo‘ladi.”<sup>9</sup>

<sup>6</sup> Худойбергано́ва Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талкини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2015. – 240 б.

<sup>7</sup> Болотнова Н.С. Лексическая структура художественного текста в ассоциативном аспекте. – Томск: Томск. гос. пед. ин-т. 1994. – 212 с.; Новикова А.М. Ассоциативные поля в языке и в структуре художественного текста: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1998; Бабенко И.И. Коммуникативный потенциал слова и его отражение в лирике М. И. Цветаевой: Дисс. ... канд. филол. наук. – Томск, 2001. – 234 с.; ва бошқалар.

<sup>8</sup> Карпенко С.М. Ассоциативные связи слова в узусе и поэтическом тексте: На материале творчества Н. С. Гумилева: Дисс. ... канд. филол. наук. – Томск, 2000. – 255 с. Васильева А.А. Лексический аспект ассоциативного развертывания поэтических текстов О.Э. Мандельштама: Дисс. .... канд. филол. наук. – Томск, 2004. – 229 с.; Брайнина Т.Д. Ассоциативные связи слова как основа создания образа в произведениях Саши Соколова: Автореф. дисс. .... канд. филол. наук. – М., 2006. – 26 с.

<sup>9</sup> Худойбергано́ва Д. Ko‘rsatilgan tadqiqot. – В.108-109.

D.Lutfullayevaning “Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi” kitobida badiiy matnning yaratilishida assotsiativ birliklarning roli, ularning badiiy matndagi vazifasi, muallif tasavvurlari, bilimi bilan bog‘lanishi masalasi tahlil qilingan.<sup>10</sup>

Demak, badiiy matnni assotsiativ aspektda tadqiq etish uni yaratgan muallifning assotsiativ tafakkuri, tashqi olam haqidagi tasavvurlari, bilimi, qarashlari, individual uslubidagi o‘ziga xos qirralarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Bobning ikkinchi fasli “**Olamning badiiy manzarasi va unda assotsiativ birliklarning o‘rni**” deb nomlangan. Keyingi yillarda falsafiy, lingvokognitiv, lingvomadaniy, psixolingvistik, etnomadaniy aspektlardagi tadqiqotlarda *olam manzarasi*, *olamning lisoniy manzarasi* terminlari faol qo‘llana boshladi. Tilshunoslar bu ikki terminning mohiyatini, ular anglatgan tushunchani turlicha talqin qilishgan. Rus tilshunoslari Z.D.Popova va I.A.Sternin *olam manzarasi* deganda jamoa ongida shakllangan tashqi olam haqidagi bilimlar to‘plami tushunilishini ta’kidlashadi.<sup>11</sup> Bizningcha, olam manzarasi insonning nafaqat bilimlari to‘plamini, balki uning tashqi olamga bo‘lgan munosabati, qarashlari, hissiyotlarini ham qamrab oladi.

Y.A.Tirishkinaning fikricha, ma’lum bir davrga va jamiyatga xos bo‘lgan olam manzarasi o‘zida, albatta, insonning qadriyatlarini yo‘nalishlarini, o‘z-o‘ziga, borliqqa va ushbu termini keng tushunganda, faoliyatga nisbatan bahosini qamrab oladi.<sup>12</sup> Demak, *olam manzarasi* dunyoni oynada shunchaki aks ettirish emas va u dunyoga ochiq oyna ham emas, balki dunyoni tushunish, uni talqin qilishdir.<sup>13</sup> Inson dunyoni tushunish, uni talqin qilishda unga o‘z munosabatini ham, albatta, bildirib o‘tadi.

*Olamning lisoniy manzarasi* tushunchasi *olam manzarasi*ning tarkibiga kiradi va uning til bilan aloqador jihatini aks ettirishda qo‘llanadi. Negaki lisoniy ong inson ongidan tashqarida emas, *olamning lisoniy manzarasi* terminida olam manzarasi tilda namoyon bo‘lishiga urg‘u beriladi. *Olamning lisoniy manzarasi* tushunchasi *tafakkur – borliq – til* munosabatini aks ettiradi.

Yozuvchi yoki shoir badiiy asarida yaratgan olam manzarasida uning bilimlari qatorida tasavvurlari, hissiyotlari, qarashlari, tashqi olamga munosabati ham jamlanadi. Ijodkor yaratgan olam manzarasi badiiy xarakterga ega bo‘lganligi uchun u *olamning badiiy manzarasi* deb ataladi.

Olamning badiiy manzarasi tashqi olamning ijodkor shaxs tomonidan badiiy tarzda baholanishi sifatida namoyon bo‘ladi. Olam badiiy manzarasi yaratilishi uni idrok etish, tushunish, shuningdek, ongda yangi badiiy obrazlarni yaratish bilan bog‘liq holda kechadi. Olamning badiiy manzarasi subyekti shunchaki inson emas, balki ijodkor insondir. Olam manzarasi subyekti alohida shaxs, jamoa yoki ma’lum guruh kishilaridan iborat bo‘lishi mumkin. Bu guruhda yozuvchi yoki shoir alohida maqomga ega. Ular o‘z asarlari, unda tasvirlangan personajlar nutqi orqali tashqi olam haqidagi qarashlari, munosabatlarini kitobxonga yetkazishadi.

<sup>10</sup> Lutфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.

<sup>11</sup> Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – С.51.

<sup>12</sup> Тырышкина Е.А. Ассоциативное поле как элемент поэтической картины мира В. Набокова: Дисс. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2002. – С. 22.

<sup>13</sup> Постовалова В.И. Картина мира в жизнедеятельности человека // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М., 1988. – С.55.

Yozuvchi yaratgan olamning badiiy manzarasi uning shu olam haqidagi ideal obrazlarining reallashuvidir. Bu obrazlarning ijodkor tafakkurida shakllanishida hamda badiiy matnga “ko‘chirilishi”da assotsiativ birliklarning xizmati katta. Badiiy matnda qo‘llangan assotsiativ birliklar konseptual ahamiyatga ega birliklar bo‘lib, asarning leksik-semantik strukturasi tayanch birliklari hisoblanadi.

Assotsiativ birliklar inson tasavvurlari, qarashlari, tashqi olamga munosabati, hissiyotlari bilan bog‘langanligi sababli ko‘pincha milliy xoslanganlik belgisiga ega bo‘ladi. Bu jihatdan aytish mumkinki, assotsiativ birliklar nafaqat olam manzarasi, balki olamning milliy manzarasini yaratishda muhim o‘rin tutadi, badiiy matnda milliy-madaniy konseptlarni ifodalashda qo‘llanganda olam manzarasi *olamning milliy manzarasi* tusini oladi.

Badiiy matnda qo‘llangan assotsiativ birliklar ko‘pincha obrazli ifodalar, metaforik mazmunli ko‘chimlardan tashkil topadi. Demak, badiiy matnning yaratilishida shunchaki leksik birliklar emas, balki ijodkor assotsiatsiyalariga asoslangan obrazli birliklar qatnashadi. Assotsiativ birliklar ijodkorning individual uslubini namoyish qiladi. QOR konsepti voqelangan quyidagi matnda Omon Matjon idiositilini yuzaga chiqaruvchi turli assotsiativ birliklar uchraydi:

*Yer oqardi. Uxlayotgan qushning qanotlarini bosib olgandagiday g‘alati tovushlar chiqadi qadamlardan. Bu oqlikni kimdir qor deb tushundi. Tomlar, yo‘laklarni tozalashga kirishdi. Kimlardir undan «bobo» yasay boshlashdi: kallasiga ko‘hna chelak, ko‘ziga ko‘mir, qo‘liga cho‘ltoq supurgi ravo ko‘rishdi... So‘ng unutishdi. Qor! Oqlik! U mening nazarimda kumushrang qanotlarini butun borliqqa yoygancha erkanib yotgan oq kaptarga o‘xshardi. Uning erkin va xotirjam parvoz bilan yana samoga, quyoshga tomon ko‘tarilib ketishiga ishonar, oppoq parlariga nimalarnidir yozib qolgim kelardi.*

Ushbu matnda qorning oq kaptarga o‘xshatilishi tasviri *Qor – oq kaptar* tuzilishidagi kognitiv metaforada aks etgan. O‘xshatishga asoslangan bu assotsiatsiya matnga metaforik mazmun kasb etgan. Matnda *qor* turtki so‘ziga nisbatan quyidagi assotsiativ birliklar aktuallashtgan: *yer oqarmoq, qadamlardan g‘alati tovushlar chiqmoq, oqlik (2), qor (2), tomlar, yo‘laklarni tozalamoq, undan (qordan) «bobo» yasamoq, ko‘hna chelak, ko‘mir, cho‘ltoq supurgi, kumushrang qanotlarini yoygancha erkanib yotgan oq kaptar, erkin va xotirjam parvoz, samoga, quyoshga tomon ko‘tarilmoq, Oppoq parlariga nimalarnidir yozib qolgim kelardi.*

Mazkur birliklar muallif tasavvurida tiklangan assotsiatsiyalar bo‘lib, Qor konseptining tasviri uchun xizmat qilgan. *Oqlik (2), undan (qordan) “bobo” yasamoq, kumushrang qanotlarini yoygancha erkanib yotgan oq kaptar* assotsiativ birliklari qorning belgi-xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilgan. Matnda *oqlik* assotsiativ birligi 2 marta takrorlangan, u orqali muallif qorning oqlik ramzi ekanligiga ishora qilgan. *Undan “bobo” yasamoq* assotsiativ birligi esa bolalarning qordan qorbobo yasashi epizodini yodga tushirgan. *Kumushrang qanotlarini yoygancha erkanib yotgan oq kaptar* murakkab so‘z birikmasi qorni kumushrang qanotli kaptarga o‘xshatish natijasida hosil bo‘lgan assotsiativ birlikdir.

Qor yoqqandan keyingi holat tasviri quyidagi assotsiativ birliklar orqali ifoda etilgan: *yer oqarmoq, qadamlardan g‘alati tovushlar chiqmoq.* Qor yoqqanidan

so'ng amalga oshiriladigan tozalash ishlari matnda *tomlar, yo'laklarni tozalamoq* assotsiativ birliklari orqali yoritilgan.

Matnda qo'llangan *ko'hna chelak, ko'mir, cho'ltoq supurgi* assotsiativ birliklari *qorbobo* so'ziga nisbatan hosil bo'lgan. *Erkin va xotirjam parvoz, samoga, quyoshga tomon ko'tarilmoq, Oppoq parlariga nimalarnidir yozib qolgim kelardi* assotsiativ birliklari turtki so'z bilan bilvosita bog'langan birliklar hisoblanadi. *Erkin va xotirjam parvoz, samoga, quyoshga tomon ko'tarilmoq* birliklari qorga o'xshatilgan oq kaptarga nisbatan hosil bo'lgan assotsiativ birliklardir. *Oppoq parlariga nimalarnidir yozib qolgim kelardi* assotsiativ birligi esa ushbu kaptar – qorga nisbatan muallifning istak-xohishini ifodalab kelgan.

Demak, QOR konsepti ifodalangan ushbu matnning tayanch birliklari assotsiativ birliklardir. Ular matnni semantik-sintaktik jihatdan shakllantirish bilan birga, olamning kichik bir fragmenti bo'lgan QOR konseptining milliy tasvirini yaratishga xizmat qilgan.

Bobning uchinchi fasli **“Assotsiativ birliklar muallif lisoniy shaxsini namoyon qiluvchi birliklar sifatida”** deb nomlangan. Har bir badiiy asarda yozuvchining lisoniy shaxsi u yoki bu darajada namoyon bo'ladi. Sh.Safarov ta'kidlaganidek, “Muallif yaratgan matn olam manzarasini voqelantirishning individual shakli, bunda nutq subyekti lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'ladi”.<sup>14</sup>

Darhaqiqat, badiiy asar muallifi yaratgan olamning badiiy manzarasida uning lisoniy shaxsiga xos turli qirralar namoyon bo'ladi. Yozuvchi yoki shoirning badiiy asari va uning hayot tajribasi o'rtasida olamning lisoniy manzarasini o'zida mujassam qilgan o'ziga xos “poetik dunyo”si o'rin oladi. Bu jihatdan qaraganda badiiy asarni uning muallifi lisoniy shaxsini yuzaga chiqaruvchi o'ziga xos vosita deb hisoblash mumkin.

Badiiy matn personajlarini lisoniy shaxs modellari sifatida o'rganish g'oyasini birinchilardan bo'lib ilgari surgan tilshunos Y.N.Karaulov edi. Uning fikricha, lisoniy shaxs til (matnlarda) va til orqali yuzaga chiqqan, til vositalari asosida asosiy xususiyatlari qayta tiklangan shaxsdir.<sup>15</sup> Demak, lisoniy shaxs har qanday shaxs emas, balki nutqida lisoniy qobiliyatini namoyish qila olgan inson, yaratgan matnida o'z xususiyatlari bilan qayta tiklangan shaxsdir. Lisoniy shaxs uchun individuallik va konkretlik xos, ya'ni u har bir nutq egasida alohida namoyon bo'ladi.

Y.G. Belyayevskayaning qayd etishicha, “lisoniy shaxs tilning milliy tizimini, shuningdek, tashqi olamni individual his qilish hamda tilda aks etgan ijtimoiy tizim va insonning individual ijodiy nutqiy faoliyatini ham namoyish qiladi”.<sup>16</sup>

Badiiy matnda muallif qo'llagan assotsiativ birliklar orqali yozuvchi lisoniy shaxsining namoyon bo'lishi masalasini o'rganish uning olam haqidagi tasavvurlari, qarashlarining nutqida qay darajada aks etganligini aniqlashda ahamiyatlidir.

*Muallif lisoniy shaxsi* deganda o'z asarida “jonli kommunikatsiya akti”ni yarata olgan, unda shaxsiy sifatlari, shuningdek, lisoniy qobiliyatini namoyon qila

<sup>14</sup> Сафаров Ш. Гаржимоннинг лисоний шахс сифатида бажарадиган фаолияти // Хорижий филология. – Тошкент, 2018. – №3. – Б. 18.

<sup>15</sup> Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – С. 38.

<sup>16</sup> Беляевская Е.Г. Теория языковой личности и когнитивная лингвистика // Языковая личность: аспекты изучения. Сборник научных статей памяти члена-корреспондента РАН Юрия Николаевича Караулова / Под ред. И. В. Ружицкого и Е. В. Потёмкиной. – М.: МАКС Пресс, 2017. – С. 41.

oladigan nutq egasi tushuniladi. Badiiy matnda muallif lisoniy shaxsini yuzaga chiqarishda assotsiativ birliklar muhim ahamiyatga ega. Omon Matjonning “Masal” she’rida muallif lisoniy shaxsining qay tarzda namoyon bo‘lganligini tekshiramiz: *Sim halqada bir it yugurar, Bo‘lar-bo‘lmas akillab turar. Hurar yaqin mehmon kelsa ham, Yaxshi kelsa, yomon kelsa ham. Huraverar, kattami-kichik, Bezor qildi shu ola kuchuk! Zanjirining qisqaligini, O‘g‘rilarning ustaligini Bilsa hamki juda ko‘p hurar, Sim halqada tinmay yugurar... Boshqa uyda yuvosh bir it bor: U ko‘p hurmas va lekin hushyor!*

Hajviy ruhda yozilgan ushbu masalda hamma bilan bo‘lar-bo‘lmasga urishaveradigan, odamlarga kun bermaydigan kishilar xatti-harakati o‘tgan-ketganga huraveradigan ola kuchuk obrazi orqali qoralangan. Shoirning bu it bilan bog‘liq assotsiatsiyalari quyidagi birliklarda aks etgan: *sim halqa (2), it, yugurmoq, akillab turmoq, hurmoq, huravermoq, bezor qilmoq, ola kuchuk, zanjirining qisqaligi, juda ko‘p hurmoq, tinmay yugurmoq, yuvosh bir it, ko‘p hurmas, hushyor.*

Ushbu assotsiativ birliklar shoirning “*bo‘lar-bo‘lmasga huraveradigan it*” qiyofasida hamma bilan urishaveradigan, ko‘pchilikni bezor qilgan insonlarni tasavvur qilganligini anglatadi. Bunday insonlar ko‘p shovqin solsa-da, hushyor emas. Aksincha, yuvosh, bo‘lar-bo‘lmasga urishmaydigan xushxulq insonlar doim sergak bo‘lishadi.

Mazkur she’rda muallif lisoniy shaxsining namoyon bo‘lganligini quyidagilar bilan dalillash mumkin: 1. Shoir til me’yorlariga mos holda matn (badiiy matn) yarata olgan va bu matnni kitobxon hech qiyinchiliksiz idrok eta oladi. 2. She’rga muallifning bo‘lar-bo‘lmasga huraverib, barchani bezor qiladigan it haqidagi tasavvurlari “ko‘chirilgan”. Boshqacha aytganda, shoirning bunday itlar qiyofasidagi insonlar haqidagi bilim va tasavvurlari xotirasida jonlanib, assotsiativ birliklar vositasida masalga “ko‘chgan”. 3. Shoirning bo‘lar-bo‘lmasga huraverib, barchani bezor qiladigan it bilan bog‘liq assotsiatsiyalari muallif lisoniy shaxsini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Shu narsa aniqki, muallif lisoniy shaxsi u yaratgan badiiy matn orqali namoyon bo‘lgan.

Omon Matjonning ayrim she’rlarida qo‘llangan assotsiativ birliklar uning shaxsiga oid sifatlarni aks ettirishga xizmat qilgan. Shoirning ruhiy kechinmalari aks etgan lirik she’rlarida muallif lisoniy shaxsi *oshiq, g‘olib, vafodor, o‘ch oluvchi, so‘z ustasi* sifatida gavdalangan. Masalan: 1. *Hajringda oy kabi yiroqqa botdim, Qora g‘amim bilan chiroqqa botdim...* 2. *Bolalikda o‘ch olishga o‘ch edim juda, Tinmas edim bir turtganni ikki turtmasdan...* 3. *Sadoqat ilmiga tolib bo‘laman, Men vafo ko‘rguzib g‘olib bo‘laman...* 4. *Tilimda gohi gul undi, gohi tikan, Lekin har so‘zimni elim tushundi...*

Xullas, Omon Matjon she’rlarida muallif lisoniy shaxsi turli obrazlar orqali gavdalangan. Bu holat shoirning har bir she’rida “o‘z shaxsi”ni qayta idrok etganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning “**Omon Matjon she’rlarining assotsiativ xususiyatlari**” deb nomlanuvchi ikkinchi bobida Omon Matjon she’rlarida assotsiativ aloqa ko‘rinishlari, assotsiatsiyalarning hosil bo‘lish omillari aniqlangan hamda shoir she’rlarida rang assotsiatsiyasining voqelanishi masalasi yoritilgan.

Ushbu bobning birinchi fasli “**Omon Matjon she’rlarida assotsiativ aloqa ko‘rinishlari**” deb nomlangan. Assotsiativ birliklar inson xotirasida bir-birini tiklovchi, yodga soluvchi birliklar bo‘lib, inson ongida o‘xshashlik, yondoshlik va shu kabi boshqa umumiy belgilari asosida assotsiativ bog‘langan birliklar juftligini hosil qiladi. Omon Matjonning quyidagi satrlarida so‘zlar ular anglatgan predmetlarning umumiy vazifasi asosida assotsiativ qatorlarga birlashgan: *Quyoshman deb lof urib qolding, Jinchiroqqa o‘xshaysan, kechir.*

Berilgan parchada *quyosh – jinchiroq* assotsiativ juftligi yuzaga kelgan. Quyosh va jinchiroqning yorug‘likni ta’minlashi shoir xotirasida ularning bir-birini tiklashiga turtki bergan. Bu tarzda assotsiativ birliklarning hosil bo‘lishi so‘z anglatgan predmetlar vazifasidagi o‘xshashlikka asoslangan.

Shoirning quyidagi satrlarida esa assotsiativ aloqa yondoshlik asosida yuzaga kelgan: *Yulduzimiz bormish ikkimizning ham, Samo ungurida porlarmish go‘yo...* Ushbu parchada *yulduz* so‘ziga nisbatan qo‘llangan *samo unguri* assotsiativ birligi *yulduz, samo* so‘zlarining uyadoshlik munosabati asosida hosil bo‘lgan.

Omon Matjon she’rlarida assotsiativ aloqa turtki so‘z – assotsiativ birlik hamda she’rdagi o‘zaro assotsiativ bog‘langan birliklar orasida kuzatildi. Turtki so‘z va assotsiativ birlik o‘rtasidagi assotsiativ aloqa bevosita aloqa, bir assotsiativ birlikning boshqa birlik bilan aloqaga kirishib, so‘ngra turtki so‘z bilan bog‘lanishi esa bilvosita aloqa bo‘lib, ketma-ketlikka asoslanadi.

Shoirning sarlavhali she’rlarida turtki so‘z vazifasini she’r sarlavhasi bajargan. Chunki sarlavhaning mazmun-mohiyati she’rda u bilan assotsiativ bog‘langan birliklar orqali ochib berilgan. Sarlavhasiz she’rlarda tasvir obyektini bildiruvchi so‘zlar turtki so‘z vazifasida kelgan. Ular she’r matnida eng ko‘p qo‘llangan so‘zlar, radif vazifasini bajargan birliklar, muallif nutqi qaratilgan undalmalardan tashkil topgan. Masalan, quyidagi she’rda *suv*, garchi bir marta tilga olingan bo‘lsa-da, tasvir obyektini bo‘lganligi sababli uni turtki so‘z vazifasini o‘tagan deyish mumkin: *Suv ham odamlardek yashab, o‘ladi, Ruhi bulut bo‘lib ko‘kda yeladi, Yelkasidan oxir joy bergach tog‘lar, Oqlanib-poklanib qaytib keladi.*

Omon Matjon she’rlarida turtki so‘z va assotsiativ birlik o‘rtasida assotsiativ aloqaning quyidagi turlari kuzatildi: 1. To‘g‘ridan to‘g‘ri assotsiativ aloqa. 2. Bog‘li assotsiativ aloqa. 3. Aralash assotsiativ aloqa.

She’rda qo‘llangan assotsiativ birliklar turtki so‘z bilan bevosita bog‘lansa, to‘g‘ridan to‘g‘ri assotsiativ aloqa yuzaga keladi. Masalan, *Bu ne oyina uy, ne billur qasr, Nurlar, sharpalarning bu qanday raqsi?! (“Uy”)* misrasida qo‘llangan *oyina uy, billur qasr* assotsiatsiyalari *uy* turtki so‘zi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘langan.

Quyidagi she’rda bir-biri bilan ketma-ket bog‘lanib, bog‘li assotsiativ aloqani hosil qilgan assotsiativ birliklar uchraydi. Masalan: *Men bugun Xivada viqorli turgan Asriy yodgorlardan tuyarkan ma’ni, Dedim: umr hikmatin bobongdan o‘rgan, Asramoqni o‘rgan Ichon qal’ani!*

Ushbu she’rning *Bir Xiva – ikki qal’a* sarlavhasi turtki so‘z vazifasini bajarib kelgan. Unga nisbatan she’rda qo‘llangan quyidagi assotsiativ birliklar ketma-ket bog‘li aloqani hosil qilgan: *Xiva – viqorli turgan asriy yodgorlar(dan) – (yodgorlardan) ma’ni tuymoq – demoq – Umr hikmatin bobongdan o‘rgan, Asramoqni o‘rgan Ichon qal’ani.*

Matnda turtki soʻz bilan bevosita va bilvosita bogʻlanib kelgan assotsiativ birliklar aralash assotsiativ aloqani hosil qiladi. Masalan: *Suv ham odamlardek yashab, oʻladi Ruhi bulut boʻlib koʻkda yeladi. Yelkasidan oxir joy bergach togʻlar, Oqlanib-poklanib qaytib keladi.* Ushbu toʻrtlikda *suv* turtki soʻziga assotsiativ birliklar quyidagicha bogʻlangan: *suv – odamlardek yashamoq; suv – (odamlardek) oʻlmoq; oʻlmoq – ruhi bulut boʻlib koʻkda yelmoq; suv – (suvga) togʻlar yelkasidan joy bermogʻ; suv – oqlanib-poklanmoq; suv – (oqlanib-poklanib) qaytib kelmoq.* Sheʼrdagi *oʻlmoq – ruhi bulut boʻlib koʻkda yelmoq* assotsiativ juftligidan tashqari barcha assotsiativ birliklar bevosita *suv* turtki soʻziga bogʻlanib kelgan.

Bobning ikkinchi fasli “**Omon Matjon sheʼrlarida assotsiativ birliklarning hosil boʻlish omillari**” deb nomlangan. Tilda assotsiativ birliklar turli omillar taʼsirida yuzaga keladi. Assotsiativ birliklarning hosil boʻlishida til birligiga xos lingvistik belgilar qatorida jamiyatda shakllangan madaniy, siyosiy, diniy qarashlar, til egalarining voqelik haqidagi bilimlari, koʻrgan-kechirganlari, hayotiy tajribalari, shaxsiga xos jihatlar (yoshi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy mavqei, qiziqishlari) kabi tashqi omillarning ham taʼsiri katta.

Omon Matjon sheʼrlarida, asosan, quyidagi lingvistik omillar asosida assotsiativ birliklarning hosil boʻlganligi aniqlandi: 1. Soʻzlarning paradigmatic va sintagmatic aloqasi. 2. Soʻzlarning uslubiy belgisiga koʻra aloqadorligi. 3. Soʻzlarning derivatsion belgisiga koʻra aloqadorligi. 4. Soʻzlarning dialektal belgisiga koʻra aloqadorligi. 5. Soʻzlarning milliy-madaniy belgisiga koʻra aloqadorligi. 6. Soʻzlarning ijtimoiylik va gender belgisiga koʻra aloqadorligi. Avtoreferatning hajmini inobatga olib, quyida ushbu omillarning ayrimlari haqida maʼlumot berib oʻtamiz.

Assotsiativ birliklarning oʻzaro aloqasida ularning paradigmatic va sintagmatic munosabati muhim oʻrin tutadi. *Turtki soʻz – assotsiativ birlik* yoki *assotsiativ birlik – assotsiativ birlik* oʻrtasidagi paradigmatic aloqa bu soʻzlar orasida kuzatiluvchi sinonimik, antonimik, omonimik, uyadoshlik, partonimik, giper-giperonimik munosabat asosida yuzaga chiqadi.

Sinonimik munosabatga asoslangan assotsiatsiya Omon Matjonning quyidagi sheʼriy parchasida kuzatiladi: *Ammo orzularimdan Tunning umri qisqadir, Koʻkka yulduzim qaytar, Osmona izim qaytar!*

Mazkur sheʼriy parchada *koʻk – osmon* sinonimiyasiga asoslangan assotsiatsiya ishlatilgan. Sinonimiya *assotsiativ birlik – assotsiativ birlik* oʻrtasida yuzaga kelgan.

Shoir sheʼrlarida antonimlar assotsiatsiyasi *assotsiativ birlik – assotsiativ birlik* oʻrtasida koʻzga tashlandi. Masalan: *Shimolda biz yozdan xazonga tushdik. Bu – janub. Yana “Yo ramozon!”ga tushdik. Gʻarbga ketdik – tubsiz qozonga tushdik. Sharqqa yurdik, yana ozonga tushdik.*

Bu sheʼrda antonimik munosabatdagi *Shimol – janub, Gʻarb – Sharq* assotsiatsiyalari qoʻllangan. Bu birliklar assotsiativ meʼyor sifatida tildan oʻrin olgan. *Yoz – xazon* (*kuz* maʼnosida) soʻzlari bir-biriga zidlangan shartli antonimlar boʻlib, shoirning obrazli tafakkuri mahsuli hisoblanadi.

Omon Matjon sheʼrlarida uyadoshlik munosabatiga asoslangan assotsiatsiya turi koʻp kuzatildi. Uyadosh soʻzlar assotsiatsiyasini shoirning quyidagi sheʼrida kuzatish mumkin: *Bir yoqdan jodugar ignabarg archa Chimchilab-chaqishga*

*urinsa zimdan, Bir yoqdan cho'ng eman zug'm etar senga, Behayo qarag'ay yalang'ochlar tan.*

Ushbu she'riy parcha oq qayin tasviriga bag'ishlangan. Bu parchada qo'llangan *archa, eman, qarag'ay* so'zlari uyadoshlik munosabatida bo'lib, *qayin* turtki so'ziga nisbatan hosil bo'lgan. Tadqiqotda so'zlarning partonimik, gipo-giponimik munosabati asosida assotsiativ bog'lanishi masalasi ham tahlil qilindi.

Turtki so'z va assotsiativ birlik o'rtasidagi tobelik munosabati sintagmatik assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. Sintagmatik assotsiatsiyalar orqali nutqda so'z birikmalari va gaplar hosil bo'ladi. Omon Matjonning har bir she'rida bu turdagi assotsiativ birliklar kuzatildi. Uning "O'rtamizda birgina olma" she'ridan olingan quyidagi parchaga e'tibor qaratamiz: ***O'rtamizda birgina olma Gard tegmagan, biram pokiza. Hozircha u rangin bir havas, Lab tegsa boshlanar mo'jiza...***

She'riy parchada turtki so'z vazifasida *o'rtamizda birgina olma* birikmasi kelgan. Ushbu turtki so'zga nisbatan muallifda *gard tegmagan, biram pokiza, hozircha rangin bir havas, lab tegsa boshlanar mo'jiza* tarzidagi individual assotsiatsiyalar yuzaga kelgan. Ular orqali nutqda quyidagi jummalarni hosil qilish mumkin: *O'rtamizda birgina olmaga gard tegmagan, O'rtamizda birgina olma biram pokizadir, O'rtamizda birgina olma hozircha rangin bir havasdir, O'rtamizda birgina olmaga lab tegsa, boshlanar mo'jiza.* Shu ma'lum bo'ladiki, turtki so'z va unga nisbatan hosil bo'lgan assotsiativ birliklarning sintagmatik munosabati asosida nutqda turli sintaktik qurilmalar shakllanadi.

Tilda muayyan uslubga mansub so'zlarning inson xotirasida bir-birini yodga solib turishi kuzatiladi. Masalan, *ko'k – samo* (badiiy uslub), *nuqta – vergul* (ilmiy uslub) kabilar. Omon Matjon she'rlarida badiiy uslubga xoslangan so'zlarning assotsiativ aloqasi ko'p kuzatiladi. Masalan: *Tong otdi, olamda ming rasm ko'rdim, Mehrli ko'zlarni pok, ma'sum ko'rdim.*

Shoir she'rlarida ayrim so'zlarning umumiy derivatsion belgisi asosida assotsiativ aloqaga kirishganligi ham kuzatiladi. Bunday holatda *turtki so'z – assotsiativ birlikning* derivatsion xususiyatlarida umumiylik kuzatiladi. Masalan, shoirning "Baxtiyor" nomli she'rining birinchi misrasida *baxtiyor* stimol so'ziga nisbatan 3 o'rinda *baxtli* assotsiatsiyasi qo'llangan: ***Baxtli odam kim bu kun? Baxt deb yugurgan baxtlidir. Ham zamon ahli aro o'zlukda turgan baxtlidir...*** Bunda *baxtiyor* stimol so'zi va *baxtli* assotsiatsiyasining yasalish asosi umumiy.

Bobning uchinchi fasli "**Omon Matjon she'rlarida rang assotsiatsiyasining voqelanishi**" deb nomlangan. Ushbu faslda shoirning oq va qora ranglari tasviri aks etgan she'rlari tahlili asosida uning bu ranglar bo'yicha tasavvurlari, o'zbek madaniyatida ranglar bilan bog'liq tarzda shakllangan qarashlarga nisbatan subyektiv munosabati yoritilgan.

Ma'lumki, o'zbek xalqining ranglar bilan bog'liq o'z tasavvurlari, qarashlari bor. Xalqimizda oq rang soflik, poklik, yorug'lik, ezgulik, tinchlik, sulhparvarlik ramzi sifatida baholanadi. Ammo ayrim hududlarda oq rang motam ramzi sifatida ham tavsiflanadi. Adabiyotshunos olim I.Haqqulning ma'lumot berishicha, "ba'zi xalqlarda, jumladan, turkiy qavmlarda ham oq rang motam, musibat, hatto

qurg‘oqchilik alomati hisoblangan<sup>17</sup>”. Oq rangi bilan bog‘liq mana shu tasavvurlar va egallangan bilimlar asosida turli xalqlar tomonidan bu rangga nisbatan har xil assotsiatsiyalar berilganligi kuzatiladi.

Omon Matjon she‘rlarida *oq* leksemasi, avvalo, narsa-predmetlarning tabiiy rangini bildiruvchi leksemdir. Shu bilan birga bu leksema ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanib, boshqa ma‘nolarga ham ega bo‘lgan.

Shoir asarlarida oq rangi bilan bog‘liq quyidagi tasavvurlari o‘z ifodasini topgan: 1. **Oq – bu qor. Oq – bu oq kaptar:** *Qor! Oqlik! U mening nazarimda kumushrang qanotlarini butun borliqqa yoygancha erkalanib yotgan oq kaptarga o‘xshardi.* 2. **Oq – bu oq qog‘oz:** *She‘ringni xalq uchun ayt, oqda qoldir...* (“Baxshiga”) 3. **Oq – bu paxta xirmoni:** *Yurtimda oq tog‘lar ko‘rinar menga.* (“Paxtamiz xususida nutq”). 4. **Oq – bu pok niyat:** *Kuzda karvon bo‘lib olamga ketgan Yurtimning bahorgi oq xayollari.* (“Paxtamiz xususida nutq”)

Xalqimizning qora rang bo‘yicha ham o‘z qarashlari mavjud. Qora rangi bugungi kunda xalqimiz tomonidan, asosan, yomonlik, qorong‘ilik, qayg‘u-uqubat, o‘lim ramzi sifatida tavsiflanadi. Omon Matjonning qora rangi bilan bog‘liq tasavvurlari va qarashlari xalqimiz qarashlari bilan deyarli hamohang. Shoir *qora* leksemasini, avvalo, shu rangdagi predmet, hodisalarga nisbatan qo‘llaydi: *Uzun qora soching ko‘zdan uzildi...* (“Seni yaxshi ko‘raman”)

Ma‘lumki, she‘riyatda tunga ko‘pincha *uzun, qora, qorong‘i* kabi xislatlar beriladi. Omon Matjon she‘rlarida ham tunning bunday tavsiflarini kuzatish mumkin: *Shunchalik qora tun, shunchalik vahm?!* (“Eng uzun kechada”) *G‘ildirak izidan uzun tunlarda Nomin hay-huvladim uning tog‘- Toshdan.*

Shoir jamiyatdagi yomon illatlar, kishilarga xos salbiy xislatlarni tasvirlashda ham *qora* leksemasidan o‘z o‘rnida foydalangan. Quyidagi she‘riy parchada shoir qulfga nisbatan *qora* leksemasini qo‘llab, salbiy illatni yanada bo‘rttirgan: *Bir johil so‘zi-la butun bir xalqning Og‘ziga qora qulf osgan ekanlar.* (“Taqlid”)

Shoir quyidagi she‘riy parchalarida qora rangini g‘am-g‘ussa, intiqom, bosqin bilan bog‘lagan: *Bunda qo‘nim tutgan o‘tmishdan yoxud Qora g‘ussa ortib qaytgan shum karvon.* (“Eng uzun kechada”) *Yo osmon tubida qora intiqom Kurrani etdimi quyoshdan pana?!* (“Eng uzun kechada”) *Sen yonding! Va yerga – qora bosqinning, Ustiga otilding – yarador chaqmoq.* (“Yarador chaqmoq yoki bir yulduz tarixi”)

Omon Matjon she‘rlarida *qora ko‘ngil, qora qahraton, qora xat* birikmalari ham uchraydi. Bunday birliklarning shakllanishida tarkibiy qismlarining nafaqat grammatik va semantik jihatdan o‘zaro bog‘lanishi, balki assotsiativ munosabati ham muhim o‘rin tutadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Omon Matjon she‘rlari assotsiativ maydoni strukturasi**” deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi fasli “**Matnning assotsiativ maydonini shakllantirish tartibi**” deb nomlangan.

Assotsiativ maydon inson tasavvurlari va bilimi bilan bog‘liq holda assotsiativ bog‘langan birliklar majmuyi bo‘lib, turli sath birliklarini qamrab oladi. Tilshunoslikda assotsiativ maydon quyidagi usullarda shakllantiriladi: 1) til egalari

---

<sup>17</sup> Хаққул И. Яна қора ранг талқини ҳақида // <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-yana-qora-rang-talqini-haqida.html>

ustida assotsiativ tajriba o'tkazish asosida; 2) tayyor matnning assotsiativ maydonini belgilash asosida.

Tilshunoslikda badiiy matnning assotsiativ maydonini shakllantirishning bir qancha usullari ko'rsatilgan. Rus tilshunosi Y.N.Karaulov matnning assotsiativ maydonini belgilashning "DE" operatsiyasi deb nomlangan metodikasini ishlab chiqqan. Unga ko'ra dastlab matn bir qancha mustaqil parchalarga ajratiladi, ya'ni dekompozitsiyalashtiriladi. Bu parchalar bir-biri bilan bog'langan gipermatn birliklari to'plamiga aylantiriladi. Gipermatnda so'z shakllari ajratilib, grammatik shakldan soqit qilinadi, ya'ni degrammatikalizatsiyalashtiriladi.

So'ngra propozitsiyalar to'plami buzilib yuboriladi (depropozitsiyalanadi) va ularni tashkil etuvchilar turli assotsiativ maydonlarga taqsimlanadi. Oxirgi bosqichda assotsiativ birliklardan shaxs diskursi soqit qilinadi, ya'ni ular depersonallashtiriladi.<sup>18</sup> Ko'rinadiki, bu metodikada badiiy matn bir qancha mayda bo'laklarga ajratilib, uning tarkibidan grammatik shakllardan xoli qilingan, turtki so'zga nisbatan va o'zaro assotsiativ bog'langan birliklar ajratiladi.

Tadqiqotda matnning assotsiativ maydonini shakllantirishda Y.N.Karaulov tavsiya etgan metodikaga asoslanildi. Bunda quyidagi vazifalar bajarildi: 1. She'riy matnda turtki so'z vazifasini bildiruvchi birlik aniqlandi. 2. She'riy matn propozitsiyalar to'plamiga ajratib chiqildi. 3. Har bir propozitiv konstruksiyadan turtki so'zga bevosita hamda bilvosita bog'langan birliklar ajratildi. 4. Turtki so'z bilan assotsiativ bog'langan birliklar grammatik belgidan holi etildi. 5. Assotsiativ birliklar she'rdagi qo'llanish tartibi asosida assotsiativ maydonga ketma-ketlikda joylashtirildi. 6. Assotsiativ birliklar statistik tahlil qilindi, takror birliklar umumlashtirilib, soni ko'rsatildi.

Ushbu metodika asosida Omon Matjonning quyidagi to'rtliginig assotsiativ maydonini shakllantiramiz: *Sadoqat ilmiga tolib bo'laman, Men vafo ko'rguzib g'olib bo'laman. Qonimni buzsa ham ming bir xiyonat, Yana o'z aslimga borib, o'laman.*

She'r sarlavhasiz bo'lganligi uchun turtki so'zni she'rning tasvir obyektiga qarab belgilaymiz. She'rda muallifning sadoqat haqidagi qarashlari ifoda etilganligi sababli *sadoqat* so'zini turtki so'z deb qabul qilamiz. She'r matnida propozitsiya ifodalovchi quyidagi konstruksiyalar mavjud: 1) *sadoqat ilmiga tolib bo'laman*; 2) *men vafo ko'rguzib*; 3) *(men) g'olib bo'laman*; 4) *qonimni buzsa ham ming bir xiyonat*; 5) *yana o'z aslimga borib*; 6) *o'laman*.

Birinchi propozitiv konstruksiyada *sadoqat ilmi* va *tolib bo'lmoq* birliklari ajratiladi. *Sadoqat ilmi* birikmasi *sadoqat* turtki so'zi bilan bevosita assotsiativ aloqaga kirishgan. Bu so'z birikmasiga nisbatan *tolib bo'lmoq* assotsiatsiyasi yuzaga kelgan. Demak, shoir lisoniy ongida *sadoqat – sadoqat ilmi – tolib bo'lmoq* bog'li assotsiatsiyasi shakllangan. Ikkinchi propozitiv konstruksiyada *sadoqat* turtki so'zi bilan *vafo ko'rguzmoq* birikmasi assotsiativ bog'langan. *Sadoqat – vafo ko'rguzmoq*. Uchinchi propozitiv konstruksiyada esa *g'olib bo'lmoq* assotsiativ

---

<sup>18</sup> Караулов Ю.Н. Ассоциативный анализ: новый подход к интерпретации художественного текста. – М., 19996. – С. 165.


birliги *vafo ko'rguzmoq* birikmasiga nisbatan hosil bo'lgan. U *sadoqat* turtki so'zi bilan bilvosita bog'langan: *sadoqat – vafo ko'rguzmoq – g'olib bo'lmoq*.

To'rtinchi propositiv konstruksiyadan *qonimni buzmoq, ming bir xiyonat* so'z birikmalari ajratiladi. *Sadoqat* turtki so'ziga nisbatan *ming bir xiyonat* assotsiatsiyasi yuzaga kelgan. *Qonimni buzmoq* esa *ming bir xiyonat*ga nisbatan hosil bo'lgan. Bunday assotsiativ aloqa bog'li aloqa bo'lib, u quyidagicha shakllangan: *sadoqat – ming bir xiyonat – qonimni buzmoq*.

Beshinchi propositiv konstruksiya semantik jihatdan oldingi konstruksiya bilan bog'liq. Bu konstruksiyada *o'z aslinga bormoq* assotsiativ birliги *qonimni buzmoq* birikmasiga nisbatan yuzaga kelgan. Ya'ni: *qonimni buzmoq – aslinga bormoq*. Oltinchi propositiv konstruksiyada *o'laman* birliги *aslinga bormoq* birikmasi bilan assotsiativ bog'langan: *aslinga bormoq – o'lmoq*. Demak, she'ning umumiy assotsiativ maydoni birliklari quyidagicha:

**SADOQAT:** *sadoqat ilmi, tolib bo'lmoq, vafo ko'rguzmoq, g'olib bo'lmoq, ming bir xiyonat, qonimni buzmoq, aslinga bormoq, o'lmoq*.

She'ning assotsiativ maydonidan jami 8 ta assotsiativ birlik o'rin olgan. Ulardan 3 tasi (*sadoqat ilmi, vafo ko'rguzmoq, ming bir xiyonat*) *sadoqat* turtki so'zi bilan bevosita bog'langan, 5 tasi (*tolib bo'lmoq, g'olib bo'lmoq, qonimni buzmoq, aslinga bormoq, o'lmoq*) turtki so'z bilan bilvosita assotsiativ aloqaga kirishgan. She'rdagi assotsiativ birliklarning bog'li aloqasini chizmada quyidagicha aks ettirish mumkin:



Badiiy matnning bu kabi assotsiativ maydoni til egalari ustida o'tkazilgan assotsiativ tajribalar asosida hosil qilingan assotsiativ maydondan farq qiladi. Til egalari ustida o'tkazilgan assotsiativ tajriba asosida hosil qilingan maydon, asosan, jamoaviy xarakterga ega bo'ladi.

Bobning ikkinchi fasli **“Omon Matjon she'rlari assotsiativ maydoni birliklarining xususiyatlari, yadro va chegara qism birliklari”** deb nomlangan.

Omon Matjon she'rlari assotsiativ maydonida tasvir obyektining xususiyatlari bilan bog'liq holda muallif xotirasida tiklangan turli individual assotsiativ birliklar uchraydi. Jumladan, uning she'rlari assotsiativ maydonida *ayol* turtki so'ziga nisbatan *ona bo'lmoq* (“Yor tanlash”), *yolg'iz qoldirmoq, mayus nigoh* (“Ketishim shart edi...”), *avratsiz, aziz* (“Turg'unlik yillari”); *E'zozingiz buyuk!, noziklik* (“Ayolga maqto'v”), *ko'z yoshdan ho'l ro'mol* (“Yigitlar bir janjal boshlasa...”), *ko'ziga tikka qaray olmay* (“Kommunistlar, olg'a!”) assotsiativ birliklari o'rin olgan

bo'lib, ular ayolning xarakteri, ruhiy holati, unga o'zgar munosabati kabilarni ochib bergan. *Ona bo'lmoq* assotsiativ birligi ayol leksemasining lug'aviy ma'nosi muayyan semasini ochib berishga xizmat qilgan. *Avratsiz*, *aziz* assotsiativ birliklari muallifning ayolga bergan tavsifini anglatsa, *mayus nigoh*, *ko'z yoshdan ho'l ro'mol* birliklari ayolning ruhiy holati haqida ma'lumot beradi. *Yolg'iz qoldirmoq* assotsiatsiyasi tashlab ketilgan, yolg'izlikka mahkum etilgan ayol obrazini tasavvurda tiklaydi. *E'zozingiz buyuk!*, *noziklik* assotsiatsiyalari shoirning ayolga bergan bahosini aks ettirgan. *Ko'ziga tikka qaray olmay* birligi ayol kishi bilan bo'lgan munosabatda yuzaga kelgan holat haqida ma'lumot beradi. She'rdagi ushbu birliklar ayol obrazini badiiy tarzda tasvirlashga xizmat qilgan.

Omon Matjon she'rlari assotsiativ maydonida *umr* turtki so'ziga nisbatan berilgan birliklar ham betakrorligi bilan ajralib turadi. *Umr oynasi*, *umri boqiy* ("Umr haqida"); *boqiy* ("Eng so'nggi xazina"), *oqar* ("Karvonlar"), *asirlikda kechgan* ("Yurakka"), *tentib uloqqan, bir umr* ("Mezon") assotsiativ birliklari; *bemaqsad* ("Qadim ohanglarda"), *men kechirgan* ("Shu'lalardan hayratlanish"), *yolqin umrlar* ("Huv qora to'nka..."), *umr ishi* ("Umr ishi..."), *inson umri* ("Emlashur..."), *lahzasi* ("Mayni sharaflaylik"), *o'tgan sayin* ("Umr o'tgan sayin..."), *o'tgan, qaytmas* (Yangi yil jomso'zi); *keyingi* ("Kitobga so'zboshi izlab"), *bergan, kechgan, Chop-chop, shosh ekan* ("Odamning yoshi"); *uzun, kechar* ("Shalola" she'riyat klubining qatnashchisiga"); *hikmati* ("Ikki qal'a"), *daftari, bolalikning ijodi go'yo* ("Taqlid"); *ko'z orti* ("Qrimda betoblenganim") assotsiativ birliklari umrning xususiyatlari, uning vaqt bilan bog'liqligi kabilarni aks ettirishga xizmat qilgan. Jumladan, *umri boqiy, boqiy, yolqin (umrlar), oqar, asirlikda kechgan, tentib uloqqan, bemaqsad, qaytmas, kechgan, Chop-chop, shosh ekan, uzun, kechar, bolalikning ijodi go'yo* assotsiativ birliklari umrga xos jihatlarni tavsiflashga xizmat qilgan. *Bir umr, lahzasi, o'tgan sayin, o'tgan, keyingi* assotsiativ birliklari umrning vaqt bilan chegaralanganligi haqida ma'lumot beradi. *Men kechirgan* assotsiatsiyasi shoirning umriga ishora bo'lsa, *inson umri* assotsiativ birligi umuman insonlar umrini anglatadi. *Umr ishi, hikmati, daftari* assotsiativ birliklari ko'chma ma'noda qo'llangan individual assotsiatsiyalardir. Umuman, Omon Matjon she'rlarida bu kabi metaforik assotsiatsiyalar, shuningdek, jonlantirish san'atiga asoslangan obrazli ifodalar nihoyatda ko'p uchraydi. Ular she'riy matnning badiiyligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

Shoir she'rlari assotsiativ maydonidan o'rin olgan bu kabi assotsiativ birliklar she'rning bosh turtki so'ziga nisbatan bevosita yoki bilvosita bog'lanishiga ko'ra farqlanadi. Bu jihatdan ular assotsiativ maydonning yaqin yoki uzoq chegara qismidan o'rin oladi. Yadro qismida joylashadigan birliklar qo'llanish darajasi yuqori bo'lgan, chegara qismidagilar esa yakka tartibdagi birliklardir.

Sarlavhali she'rlarda assotsiativ maydon yadrosida, eng avvalo, shu she'rning sarlavhasi joylashadi. She'rdagi boshqa so'zlar uning atrofida birlashib, matnning shakllanishida ishtirok etadi. Rus olimasi N.O.Zolotova "til egalari tomonidan turtki so'zga nisbatan eng ko'p berilgan javob reaksiyalari, yuqori assotsiativ kuchga ega chegaralangan birliklarning assotsiativ maydonning yadrosidan o'rin egallashini

ta'kidlaydi<sup>19</sup>”. Demak, she'r sarlavhasi hamda unga nisbatan eng ko'p bildirilgan assotsiatsiyalar assotsiativ maydonning yadrosidan o'rin oladi.

Assotsiativ maydonda chegara qismlar yaqin va uzoq chegara qismlariga ajratiladi. Yadro qism bilan kuchli aloqada bo'lgan assotsiativ birliklar yaqin chegarada, yadro qism bilan kuchsiz aloqada bo'lgan assotsiativ birliklar uzoq chegarada joylashadi. Shoirning *Varrak ingranadi ko'kda to'lg'anib ...* deb boshlanuvchi she'ri assotsiativ maydonning yadro va chegara qismlari birliklarini aniqlaymiz.

She'r varrakning osmonda uchishi tasvirini obrazli ifoda etishga va bu obraz orqali kitobxonga erkinlikdan mahrum majruh qalblar kechinmasini yetkazishga bag'ishlangan. Shoir ko'kda ingrab uchayotgan varrak, uning holidan xabar olmagan osmon, varrakning holiga bosh chayqab o'tayotgan turnalar tasviri orqali voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalashda subyektiv xarakterdagi assotsiativ birliklardan foydalangan. Muallifning ingrayotgan varrakka bo'lgan subyektiv munosabati *sho'rlik* so'zi orqali ifoda etilgan. *Sho'rlik* so'zi *varrak* so'zi o'rnida qo'llanib, varrakning holatini va bir vaqtda uning o'zini ham anglatib kelgan.

She'rda 4 marta takror qo'llangan *varrak* so'zi turtki so'z vazifasida kelib, assotsiativ maydon yadrosidan o'rin oladi. Bu so'zga nisbatan quyidagi assotsiatsiyalar hosil bo'lgan: *varrak (4), ingramoq (2), ko'kda to'lg'anmoq, unga (varrakka) parvo etmas, bolakay xayol, osmonni tanimoq, sho'rlik(dan), osmon so'ray demas hol, ko'kka bosh uruvchi varrak holi(ga), turnalar (2), bosh chayqab o'tmoq saf-saf, bilmoq, nega qiynalmoq, nega ingranmoq, ne istamoq.*

Ushbu assotsiativ maydondan jami 20 ta assotsiativ birlik o'rin olgan. Assotsiativ maydondagi 6 ta birlik: *varrak (4), sho'rlik(dan), ko'kka bosh uruvchi varrak holi(ga))* birliklari *varrak* turtki so'zi bilan bevosita bog'langan. 14 ta assotsiativ birlik: *ingramoq (2), ko'kda to'lg'anmoq, unga (varrakka) parvo etmas, bolakay xayol, osmonni tanimoq, osmon so'ray demas hol, turnalar (2), bosh chayqab o'tmoq saf-saf, bilmoq, nega qiynalmoq, nega ingranmoq, ne istamoq* birliklari turtki so'z bilan bilvosita bog'langan.

She'rda qo'llangan *Varrak ingranadi, ko'kda to'lg'anib, Nega ingranmoqda varrak, ne istab?!* konstruksiyalarida varrak obrazi shoir tomonidan qayta idrok etilgan, u she'r muallifi tafakkurida tutqunlikda azob qolgan majruh inson sifatida gavdalangan.

*Varrak ingranadi, ko'kda to'lg'anib, Osmon ham so'ray demas hol, Turnalar bosh chayqab o'tdilar saf-saf, Turnalar bilishar, Nega ingranmoqda varrak, ne istab?!* konstruksiyalari jonlantirish san'ati asosida tuzilgan bo'lib, she'rga o'ziga xos badiiylik yuklagan. *Varrak* so'ziga nisbatan hosil bo'lgan *ingramoq, to'lg'anmoq* assotsiatsiyalari muallifning achinish hissini aks ettirgan. Bu hissiy munosabat *Osmon ham so'ray demas hol* konstruksiyasi orqali yanada oydinlashgan.


*Turnalar bosh chayqab o'tdilar saf-saf* konstruksiyasi ham shoirning subyektiv munosabatini, varrak obrazi ortida yashiringan tutqunlikka mahkum insonlar

---

<sup>19</sup> Золотова Н.О. Ядро ментального лексикона человека как естественный метаязык: Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – Тверь, 2005. – С. 3.

obraziga nisbatan achinish hissini namoyon qilgan. *Turnalar bilishar, Nega ingranmoqda varrak, ne istab?!* konstruksiyalari varrakning ingrashi ortida uning qanday hissiy kechinmasi yashiringanligiga ishora qilgan. Demak, osmonda to‘lg‘onib, ingrab uchayotgan varrak obrazi tutqunlikdan mahrum inson obraziga ishora, uning tutqunlikdan ozod bo‘lib, ko‘kda erkin parvoz qilishi shoirning orzu-istagidir. Varrakning ingrashini kuzatib, bosh chayqab o‘tib ketayotgan turnalar obrazi birovning tutqunligiga achinsa-da, uni ozod qilish qo‘lidan kelmaydigan insonlarga ishoradir. Varrak ahvolidan hol-ahvol so‘ramagan osmon obrazi birovning holini so‘ramaydigan befarq kishilarni eslatadi. Ko‘rinadiki, Omon Matjon varrak obrazi orqali o‘z tasavvuridagi olamning badiiy manzarasini yaratgan.

She‘rning assotsiativ maydoni yadro, yaqin va uzoq chegara qismlaridan o‘rin olgan assotsiativ birliklarni quyidagi diagrammada ko‘rsatamiz:



Bobning uchinchi fasli “**Omon Matjon she‘rlarining tajriba materiallariga asoslangan jamoaviy assotsiativ maydoni**” deb nomlangan. Ushbu faslda shoir she‘rlari bo‘yicha o‘tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari tahlili asosida shoir yaratgan olamning poetik manzarasiga baho berildi.

Assotsiativ tajriba Omon Matjonning “*Quyosh qizarishlari*”, “*Eshigingdan o‘taman*” she‘rlari bo‘yicha Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumanida yashovchi 17-18 yoshdagi 24 ta maktab bitiruvchilari ustida yozma tarzda o‘tkazildi.

Omon Matjonning “*Quyosh qizarishlari*” she‘ri bo‘yicha o‘tkazilgan assotsiativ tajribada quyidagi javob reaksiyalari olindi: *yorug‘lik (2), insonlarning xatolari (2), yolg‘izlik (2), tun (2), ayrilgan sevgi, armon, gunohlar, dunyo azoblari unutilishi, yorug‘likdagi yomonliklar, jilo, insonlar har xilligi, yo‘l, kelajak, qizargan yanoqlar, qiynoqlar, mehr, namoz o‘qish vaqti, odamlarning gunohlarini kechirishlarini so‘rash, oy, tong otishi, o‘tmishdagi gunohlar, hayot, shom.*

Bular ichida *yorug‘lik (2), insonlarning xatolari (2), yolg‘izlik (2), tun (2)* javob reaksiyalari takror qo‘llangan. Qolgan javob reaksiyalari bir marta berilgan.

Assotsiativ maydondan o‘rin olgan bu birliklar lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida hosil bo‘lgan. Assotsiativ maydonda sinaluvchilar xotirasida saqlanib qolgan she‘rning leksik, sintaktik birliklari asosida hosil bo‘lgan javob

reaksiyalari mavjud. Masalan, *oy* javob reaksiyasi she'rdagi qo'llangan *quyosh* so'ziga nisbatan uyadoshlikka asoslangan assotsiatsiya sifatida hosil bo'lgan. Ikki sinaluvchi tomonidan takrorlangan *tun* javob reaksiyasi she'rdagi qo'llangan *tun* so'zining yodiga tushishi asosida hosil bo'lgan. *Qizargan yanoqlar* javob reaksiyasi metaforik mazmunga ega bo'lib, she'rdagi *olovlanib yanoqlar* birikmasining sinaluvchi xotirasida qisman tiklanishi asosida yuzaga kelgan. Ushbu javob reaksiyalarining barchasi lingvistik omillar asosida hosil bo'lgan.

Assotsiativ maydonda ekstralingvistik omillar asosida yuzaga kelgan javob reaksiyalari nisbatan ko'p. Masalan, *shom* javob reaksiyasi *quyosh* botayotgan vaqt, ya'ni *shom* vaqtining xotirada tiklanishi natijasida yuzaga kelgan. Insonlar tomonidan qilinayotgan gunohli ishlarga nisbatan yuzaga kelgan assotsiatsiyalar quyidagi javob reaksiyalarida aks etgan: *insonlarning xatolari* (2), *gunohlar, yorug'likdagi yomonliklar, o'tmishdagi gunohlar*. *Quyoshning qizarishi* manzarasi ikkita sinaluvchida *yorug'lik* assotsiatsiyasini yuzaga keltirgan. Nurning jilolanishi haqidagi bilimi bir sinaluvchida *jilo* assotsiatsiyasini hosil qilgan. *Quyoshning qizarishini* ma'lum vaqt bilan bog'lash quyidagi javob reaksiyalarida kuzatiladi: *tun* (2), *namoz o'qish vaqti, tong otishi, shom*.

Ayrim javob reaksiyalari sinaluvchilarning gunoh, uning javobsiz qolmasligi kabi diniy bilimlari bilan bog'liq holatda shakllangan. Bir sinaluvchi kuppa-kunduzi qilinayotgan gunohlarni u dunyo azoblarini unutish bilan bog'lagan. Sinaluvchilarning bu gunohli ishlarni qilganlar azob-uqubatga uchrashi haqidagi qarashlari asosida quyidagi javob reaksiyalari yuzaga kelgan: *dunyo azoblari unutilishi, qiynoqlar, odamlarning gunohlarini kechirishlarini so'rash*.

Quyidagi javob reaksiyalari ayrim sinaluvchilarning she'r mazmunini aniq tushunmaganini anglatadi: *yolg'izlik* (2), *ayrilgan sevgi, armon, yo'l, kelajak, mehr*.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, Omon Matjonning "*Quyosh qizarishlari*" she'riga nisbatan berilgan javob reaksiyalarida she'rdagi yaratilgan olam badiiy manzarasining quyidagi aspektlari qamrab olingan: 1) predmet; 2) makon; 3) zamon; 4) baho munosabati aspekti.

Xullas, she'riy matn jamoa ongida mazmuni, unda ilgari surilgan g'oya, badiiy o'ziga xosligi, yaratilgan obrazli ifodalari bilan aks etadi. Assotsiativ tajriba orqali olingan natijalar she'rdagi muallif tomonidan yaratilgan olamning badiiy manzarasini baholashga xizmat qiladi.

## XULOSA

1. Badiiy matnning assotsiativ tadqiqida matn qismlarining semantik-mantiqan uzviyligini ta'minlovchi assotsiativ birliklarning roli, yozuvchi individual uslubini shakllantirishdagi o'rni kabi masalalar tahlili ustuvordir.

2. Assotsiativ birliklar olam lisoniy manzarasini yaratishda tayanch birliklar vazifasini o'taydi, badiiy matnda milliy-madaniy konseptlarni ifodalashda qo'llanganda olam manzarasi *olamning milliy manzarasi* tusini oladi.

3. Adib tomonidan yaratilgan olam manzarasi ijodkorning shu olam haqidagi ideal obrazlarining reallashuvidir. U badiiy xarakterga ega bo'lganligi uchun *olamning badiiy manzarasi* hisoblanadi.

4. Badiiy matn yozuvchi tomonidan yaratilgan olam manzarasini voqelantirishning individual shaklidir, bunda muallif lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Muallif lisoniy shaxsi asarda "jonli kommunikasiya akti"ni yarata olgan, unda shaxsiy sifatлари, lisoniy qobiliyatini namoyon qila oladigan nutq egasidir.

5. Omon Matjon she'rlarida o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik, yondoshlik asosida assotsiativ aloqada bo'lgan va lisoniy ongidan tayyor holda o'rin olgan birliklardan unumli foydalangan. Uning she'rlarida assotsiativ aloqa turtki so'z va assotsiativ birliklar munosabatida hamda she'rdagi o'zaro assotsiativ bog'langan so'zlar orasida kuzatildi.

6. Shoirning sarlavhali she'rlarida turtki so'z vazifasini she'r sarlavhasi, sarlavhasiz she'rlarida esa matnda aks etgan tasvir obyektini bildiruvchi so'zlar, yuqori chastotali so'zlar, radif vazifasini bajargan birliklar, muallif nutqi qaratilgan undalmalar bajargan. Turtki so'zga nisbatan hosil bo'lgan assotsiativ birliklar so'z, so'z birikmasi va gap tuzilishida shakllangan.

7. Omon Matjon she'rlarida assotsiativ birliklar lingvistik va ekstralingvistik omillarga ko'ra hosil bo'lgan. So'zlarning paradigmatic, sintagmatic aloqasi, uslubiy, derivatsion, dialektal, milliy-madaniy, ijtimoiylik, gender belgisiga ko'ra assotsiativ bog'lanishi lingvistik omil; shoirning tashqi olam haqidagi bilimlari, tasavvurlari bilan bog'liq holda assotsiativ birliklarning yuzaga kelishi ekstralingvistik omil hisoblanadi.

8. Shoir she'rlarida *turtki so'z – assotsiativ birlik* yoki *assotsiativ birlik – assotsiativ birlik* o'rtasidagi paradigmatic aloqa so'zlarning sinonimik, antonimik, omonimik, uyadoshlik, partonimik, giper-giperonimik munosabati asosida yuzaga chiqqan. *Turtki so'z – assotsiativ birlik* o'rtasidagi tobelik munosabati sintagmatic assotsiatsiyalarni yuzaga keltirgan. Shoirning har bir she'rida sintagmatic assotsiatsiyaga asoslangan so'z birikmalari va gaplar kuzatiladi.

9. Omon Matjonning xotirasida oq rangi, avvalo, oqlik xususiyatiga ega bo'lgan predmetlar: *qor, oq kaptar, oq qog'oz, paxta xirmonini* jonlantirgan. Shuningdek, ko'chma ma'nolarda qo'llanib, "sofliq", "tinchlik" ma'nolariga ega bo'lgan. *Qora* leksemasi, avvalo, shu rangdagi predmet, hodisalarga nisbatan qo'llangan, shuningdek, bu leksema shoirda jamiyatdagi yomon illatlar, kishilarga xos salbiy xislatlar haqidagi assotsiatsiyalarni ham uyg'otgan.

10. Shoir she'rlarining assotsiativ maydoni quyidagicha shakllantirildi: 1) she'riy matnda turtki so'z vazifasini bildiruvchi birlik aniqlandi; 2) she'riy matn propozitsiyalar to'plamiga ajratib chiqildi; 3) har bir propozitsiya ifodalovchi konstruksiyada turtki so'zga bevosita hamda bilvosita bog'langan assotsiativ birliklar ajratildi; 4) assotsiativ birliklar grammatik belgidan holi etildi.

11. Assotsiativ maydon yadro qismidan yuqori chastotali birliklar, she'r sarlavhasi o'rin egalladi. Yadro qism bilan kuchli aloqada bo'lgan assotsiativ birliklar yaqin chegara qismda, kuchsiz aloqada bo'lgan assotsiativ birliklar esa uzoq chegara qismda joylashdi.

12. Badiiy matn bo'yicha kitobxonlarda o'tkaziladigan assotsiativ tajriba ularning badiiy matnni tushunishi, idrok etishi jarayonida xotirasida tiklanadigan assotsiativ birliklarni aniqlashda ahamiyatlidir. Badiiy matnga berilgan javob

reaksiyalari muallif yaratgan olamning badiiy manzarasi xarakteri, uning sinaluvchilar lisoniy ongida qay tarzda namoyon bo'lishini aniqlashga imkon beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КОКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ ИМ.  
МУКИМИ**

---

**КОКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**РАХМОНОВ ХУСАНЖОН АБЖАЛИЛ ОГЛИ**

**АССОЦИАТИВНАЯ СТРУКТУРА ПОЭТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ  
ОМОНА МАТЖОНА**

**10.00.01 – Узбекский язык**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Коканд – 2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за № В2023.2.PhD/Fil.3296

Диссертация выполнена в Кокандском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета и информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

**Научный руководитель:** Лутфуллаева Дурдона Эсоновна,  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Махмудов Низомиддин Мамадалиевич  
доктор филологических наук, профессор  
Ганиева Дилдора Азизовна  
доктор филологических наук (DSc), доцент

**Ведущая организация:** Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «29» XII 2023 году в 9<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/04.05.2021.Fil.132.01 при Кокандском государственном педагогическом институте им. Муками. Адрес: 150700, г. Коканд, ул. Турон, 23. Тел.: (99873) 542-38-38+99873-542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Кокандского государственного педагогического института им. Муками (зарегистрирована за №23). Адрес: 150700, г. Коканд, ул. Турон, 23. Тел.: +: (99890) 508-64-42; e-mail: qdipi\_arm@umail.uz

Автореферат диссертации разослан «20» XII 2023 года.  
(Протокол рассылки № \_\_\_\_\_ от « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2023 года).



*M. Hakimov*

**М.Хакимов**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор филологических наук, профессор

*S. Akramov*

**Ш.Акрамов**  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
кандидат филологических наук, доцент

*M. Hakimova*

**М.Хакимова**  
Председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых степеней,  
доктор филологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистике с последней четверти прошлого века изменились подходы к изучению художественных текстов. К этому времени, когда в мировую лингвистику вошли принципы антропоцентрической лингвистики, художественный текст стал изучаться в лингвокультурологическом, прагмалингвистическом, лингвокогнитивном и социолингвистическом аспектах. В результате стало актуальным исследование таких вопросов, как фактор творческой личности в художественном тексте, ее восприятие мира, ассоциативное мышление, представления о мире, духовные переживания, национально-культурные взгляды, «перенос» отношения к действительности в художественную речь, проявление языковой способности в создании текста. Одной из важных задач в этом направлении считается изучение ассоциативного образа мышления писателей и поэтов, оценка роли ассоциаций в создании художественного текста, определение их места в формировании идиостиля творческой личности. Эти вопросы рассматриваются как актуальные проблемы ассоциативной лингвистики, сформировавшейся как самостоятельное направление в мировой лингвистике.

В мировом языкознании последняя четверть прошлого века была признана завершающим этапом формирования направления ассоциативной лингвистики. К этому времени ассоциативная лингвистика обособилась от психолингвистики как новое научное направление. Повышенный интерес мировых языковедов к вопросам ассоциативной лингвистики и тот факт, что в этом направлении проведено множество исследований, созданы ассоциативные словари на многих языках, структура ассоциативной грамматики привели к признанию этого направления в качестве самостоятельно развивающейся сферы. К настоящему времени четко определен объект изучения, предмет ассоциативной лингвистики, разработаны методы исследования, определены теоретические вопросы и актуальные проблемы. В ассоциативной лингвистике важно изучение таких явлений, как ассоциативное мышление творческого человека, создающего текст, перенос ассоциаций на художественный текст, роль таких единиц в художественном тексте, и их место в формировании идиостиля творческой личности. Исследование этой проблемы на примере произведения конкретной творческой личности безусловно обогатит новыми знаниями научно-теоретические взгляды на проблему связи *«ассоциативное мышление - язык – текст»*.

С первых дней независимости нашей страны развитию науки и повышению статуса узбекского языка в жизни общества уделяется серьезное внимание. По этому вопросу был принят ряд указов и постановлений, а также поставлена задача «поддержки научно-исследовательских работ, связанных с развитием государственного языка, осуществлением международного

сотрудничества в этой области»<sup>20</sup>. После принятия решения о том, что «Узбекистан должен быть конкурентоспособным на мировом уровне в области науки и интеллектуального потенциала»<sup>21</sup>, узбекское языкознание, как и все научные направления, вступило в новый этап развития. В целях выполнения задач, поставленных правительством республики, узбекские ученые-языковеды, проводя углубленные исследования в области социолингвистики, этнолингвистики, прагмалингвистики, лингвокультурологии, когнитивной лингвистики, психолингвистики, являющихся направлениями антропоцентрической лингвистики, приступили к изучению особенностей нашего языка, которые возникают в речи в связи с человеческим фактором. В настоящее время в узбекском языкознании проводятся определенные исследования по определению ассоциативных признаков языковых единиц. Но есть еще много задач, которые предстоит реализовать в этом направлении. В частности, в нашем языкознании актуальной задачей является изучение типов текста с ассоциативной стороны, оценка ассоциативной мыслительной деятельности лица, его создающего, определение того, согласуются ли ассоциации, ставшие нормой языка, с авторскими ассоциациями, определить причины этого и выявить роль ассоциативных единиц в создании текста. Данный случай подтверждает актуальность темы, выбранной для исследования в настоящее время, и наличие по этой проблеме множества вопросов, которые еще ждут своего решения.

